ISSN 2091-5446

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 4-son (122) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor**
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent**
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV - O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV - O'zFA akademigi
T. MIRZAYEV - O'zFA akademigi
SH. A. HASANOV - fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV - fil.f.d., professor (SamDU)
M. MUXIDDINOV - fil.f.d., professor (SamDU)
N. SH. SHODIEV - ped.f.d., professor (SamDU)
M. M. MAXMUDOVA - ped.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV - fals.f.d., professor (SamDU)
J. YA. YAXSHILIKOV - fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV - i.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV - t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV - t.f.d., professor (SamDU)
TAMIR KLEIN - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
NAZIF SHAHRANY - Indiana universiteti professori (AQSh)
HIROAKI HUZIIE - Osaka universiteti professori (Yaponiya)
KIM SUNGHAE - Daeju universiteti professori (Koreya)
BYLAPPA MANJUNATH - Don Bosko boshqaruv maktabi professori (Hindiston)

Obuna indeksi – yakka tartibidagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY		
Xatamov T. A.	Maktab ta'limida ma'naviy-tarbiyaviy islohotlar: tarixiy tahlil (1997-2010 yy.)	4
Сабиров А.Т.	Устная история в исследовательской практике Беларуссии и Узбекистана	7
Sharipov Sh. Z.	O`zbekistonda milliy – madaniy markazlar faoliyati huquqiy asoslarining shakllantirilishi	12
Zaripov O. O.	Rossiya imperiyasi ma'murligi davrida Turkiston o'lkasida suv xo'jaligi boshqaruv tizimi	16
[Bodirov A.], Bodirova Z.	Samarqandlik jangchilarni fashizmni tor-mor etishdagi ishtiroki	19
Raximov N.Sh.	Qayta qurish yillari va Xorazm xalq sovet respublikasi tarixiga yangicha yondashuvlar	22
Gadoyev H. U.	Sovet davlatida greklarning ko'chirilishi tarixidan: sabab va oqibat	27
Шадманов Т. Р.	Создание жилищно-строительных кооперативов в Узбекистане в 20-30-е гг. XX в.	30
Turopova M. T.	Janubiy O'zbekiston hududlarida 1897-1940-yillardagi demografik jarayonlar	33
Yakubov B. S.	XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning boshlarida siyosiy partiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokining o'rganilishi masalalari: asosiy bosqichlar va yondoshuvlar	37
Шарипова Г. У.	Развитие сотрудничества между государствами Узбекистана и Малайзии в сфере науки и образования	42
Ermetov A.A.	Qayta qurish yillarida O'zbekiston ichki ishlar organlarining faoliyatidagi xususiyatlar (1985-1991 yillar)	46
FALSAFA / PHILOSOPHY		
Xashimov Sh. J.	O'zbekistonda turistik klasterlar va ularning ijtimoiy-falsafiy masalalari	52
Abdullayev S. T.	Inson ma'naviy borlig'i va go'zallik kategoriyasining falsafiy tahlili	55
Xudayqulov D. I.	Yoshlarda mutolaa madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik tafakkur transformasiyasi	59
Yusupov M. S.	O'zbekistonning milliy yuksalishida tibbiyot xodimlarining kasb axloqini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy qonun-qoidalarining falsafiy tahlili	62
Юсупова Ф. З.	Социально-философский анализ инновационной активности молодежи	65
Samatov X. U.	Naqshbandiya tariqatida xalq bilan muloqot qilishning tasavvufiy-falsafiy asoslari	69
Sharipov A. Z.	Globallashuv va mafkuraviy o'zgarishlarning o'zaro aloqadorligi	74
Boboqulova X. E.	Mustaqillik davri yangi milliy - falsafiy tafakkur rivojlanishning xususiyatlari	78

Alimov A. N.	Husayn Voiz Koshifiyning ta'limotida ijtimoiy adolat masalalari	82
Turobov B. N.	Alisher Navoiy ijodida inson muammosi	84
Haydarov K. D.	Ma'naviy qadriyatlar takomilida so'fiylik falsafasining o'rni	87
	SOTSIOLOGIYA / SOCIOLOGY	
Oripov X.A., Shakarov J.Sh.	O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatidagi islohotlar, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish masalalari	93
Nuriddinov S. B.	Xitoyning «Bir makon - bir yo'l» tashabbusi uchun motivatsiya	97
Tagiyeva G. G., Xujanov Z.	Ijtimoiy hamjihatlik tamoyillarini takomillashtirish yo'llari	101
Qudratov A. M.	Volontyorlikni tadqiq etishga oid ilmiy yondashuvlar	106
	IQTISODIYOT / ECONOMICS	
Aynaqulov M. A., Nazarov O. T.	Motivatsiya funksiyalarining o'rni va xususiyatlari	110
Shukurov F. F.	Qishloq joylarda bandlikka ko'maklashuvchi davlat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari	116
Xudoyorov L. B.	Mehnat bozori infratuzilmasining rivojlanish mezonlari va ko'rsatgichlari	123
	O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY	
Xodjayev J.	Xor jamoalari bilan ishlash jarayonida vokal, solfedjio mashqlarining ahamiyati	129
Qurbonova M. F.	Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasi: tushuncha, xususiyatlar, mazmuni va shakllanish bosqichlari	132
Jomonqulova F.E., Esanov M.A.	Oliy ta'lim tizimida malakali kadrlarni yetishtirib berishga bo'lgan innovatsion yondashuvlar	136
Rustamov J.E.	Bo'lajak iqtisodchilarni elektron axborot muhitida ko'nikmalarini rivojlantirish	139
Solayeva M. N., Seytov A. J.	Maktab o'quvchilariga ketma- ketlik va funksiya limitini o'rgatishdagi ba'zi misollarni ishlashning innovatsion uslublari	145
Omonov H.T., Egamberdiyev I.B.	Noorganik kimyoni o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik asoslari	149
Tolibov N. N.	Kasbiy faoliyat ko'nikmalarni shakllantirish shartlari	152
Nizamova S. A.	Kimyo fanini ta'lim samaradorligini oshirishda multimediya dasturlaridan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimi	155
Djuraeva L.T., Nurmurodova N.F., Beknaev U.A.	Fizikaning qishloq xo`jaligidagi ahamiyati	158
Tuxtasinov I. M., Xoliyorov B. H.	Nofilologik oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	162

Mualliflarga

UDK: 301(510)

XITOYNING «BIR MAKON - BIR YO‘L» TASHABBUSI UCHUN MOTIVATSIYA

S. B. Nuriddinov
Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya. Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusining Xitoy tomonidan ilgari surilishi, buning uchun ichki va tashqi siyosatda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar o‘rin olgan. Ushbu tashabbusning asosiy motivi sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va albatta siyosiy manfaatlardir. Yangi O‘zbekiston uchun xalqaro tranzit aylanmasi hajmini maksimal darajada oshirishning amaliy choralari sifatida “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi alohida ahamiyati yuqori deya e’tirof etilmoqda. Maqolada mazkur loyiha doirasida amalga oshirilayotgan hamkorlik masalalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Buyuk ipak yo‘li, O‘zbekistonning yaqin qo‘shnichilik siyosati, Harakatlar strategiyasi, Xitoy Xalq Respublikai, xalqaro logistika, “Bir makon - bir yo‘l”, Xitoy yalpi ichki mahsuloti, Xitoy tashqi siyosati, Ipak yo‘lining iqtisodiy makoni, Markaziy Osiyo infratuzilma loyihalari.

Мотивация выдвижения китаем инициативы «один пояс - один путь»

Аннотация. Исследование по этой теме включает продвижение китайской инициативы «Один пояс - один путь», которая требует решения внутренней и внешней политики. Экономические, социальные и, конечно, политические интересы являются основными мотивами этой инициативы. Для нового Узбекистана инициатива «Один пояс - один путь» признана практической мерой по максимизации международного транзита. В статье подробно рассматриваются вопросы сотрудничества в рамках проекта.

Ключевые слова: Великий шелковый путь, тесная соседская политика Узбекистана, Стратегия действий, Китайская Народная Республика, международная логистика, «Один пояс - один путь», валовой внутренний продукт Китая, китайская внешняя политика, экономическое пространство Шелкового Пути, Центрально азиатские инфраструктурные проекты.

Motivation of the addition of china by the «one belt - one way» initiative

Abstract. Research on this topic includes the promotion of the Chinese initiative “One Belt - One Way”, which requires a solution to domestic and foreign policy. Economic, social and, of course, political interests are the main motives for this initiative. For the new Uzbekistan, the “One Belt - One Way” initiative is recognized as a practical measure to maximize international transit. The article discusses in detail the issues of cooperation within the project.

Keywords: The Great Silk Road, Close Neighborhood Policy of Uzbekistan, Action strategy, People's Republic of China, international logistics, "One belt - one way", China's gross domestic product, Chinese foreign policy, Silk Road Economic Space, Central Asian infrastructure projects.

Qadimdan barcha xalqlar iqtisodiy integratsiya masalasida yangi-yangi savdo yo‘llarini ochish, tashqi olam bilan turli sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Markaziy Osiyoda bundan 2500 yil oldin Sharq va G‘arbni bog‘lovchi savdo yo‘llari bo‘lganligi ushbu hudud geografik jihatdan qulay mintaqa ekanligidan dalolat beradi. Buyuk ipak yo‘li deya nomlangan hamda XVI asrgacha (dengiz savdo yo‘llarining ommalashishi) eng faol tranzit makon bo‘lganiga shubha yo‘q.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish tashabbusi doirasida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ajralmas komponenti hisoblangan tashqi tranzitni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor mintaqada “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusini ilgari surilishiga olib keldi. Bu masalada, ayniqsa, Xitoy xalq respublikasi bilan o‘zaro teng sherikli hamkorlik yo‘lga qo‘yilayotgani fikrimiz dalilidir. Xitoy va O‘zbekistonning “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi o‘z o‘rnida bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, kerak bo‘lsa, geosiyosiy muammolarni o‘z vaqtida hal etilishiga xizmat qiladi.

Ba’zi mulohazalarga ko‘ra mazkur tashabbus Xitoyni rivojlanish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Xitoyda islohotlar va dunyoga ochilish siyosati yangi meyorlar bosqichiga kirganligi juda muhim, bu Xitoydan yangi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. 35 yil oldin, Xitoy tashqi investitsiyalar, ilg‘or texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb qilish uchun tashqi dunyo uchun eshiklarni ochdi. Jahon iqtisodiyoti va savdosining umumiy qoidalariga muvofiq, Xitoy barcha ichki munosabatlarni o‘z iqtisodiyotini global iqtisodiyot bilan birlashtirish orqali o‘rnatdi [1]. Shu munosabat bilan, Xitoy katta kuch sarfladi va katta yutuqlarga erishdi: JST ga a’zo bo‘lish Xitoyga mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyoti bilan birlashtirishga yordam berdi. 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda tashqi yuk aylanmasi ko‘rsatkichini yanada oshirish bo‘yicha zaruriy choralar ko‘rilishi borasida o‘z takliflarini bildirib o‘tdilar. Ya‘ni, yuk aylanmasiga ta‘sir etuvchi turli suniy to‘siqlarni bartaraf etish, hujjatlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich minimal darajagacha qisqartirish masalalari haqida tanqidiy fikrlar yangradi [2].

Endi Xitoy iqtisodiyoti haqida ikki og‘iz. Xitoy 35 yildan beri milliy iqtisodiyoti rivojlanib bormoqda. 1978-yilda 367,9 milliard dollar bo‘lgan yalpi ichki mahsulot bo‘yicha Xitoy atigi 10-o‘rinda edi. 2008-yilda Xitoy Germaniyani ortda qoldirib, dunyoda 3-o‘rinni egalladi. 2010-yil yalpi ichki mahsulot hajmi bo‘yicha Xitoy Yaponiyani ortda qoldirib, dunyoda AQShdan keyin ikkinchi yirik iqtisodiyoti rivojlangan makonga aylangandi. 2018-yilda Xitoyning yalpi ichki mahsuloti 13,08 trln. dollar bilan AQShdan keyin 2-o‘rinni egallab turibdi. Iqtisodiy o‘sishning jadal sur’atlari tufayli jahon yalpi ichki mahsulotidagi Xitoy yalpi ichki mahsulotining ulushi 1978-yildagi 5 foizdan 2019-yilda 6,1 foizga o‘sdi. Bundan tashqari, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2008-yildagi moliyaviy inqirozdan keyin Xitoyning jahon iqtisodiyoti o‘sishiga qo‘shgan hissasi 30% atrofida, 2018-yilda - 35,2% ni tashkil etadi. Ushbu statistika shuni ko‘rsatadiki, Xitoy jahon iqtisodiyoti o‘sishining asosiy motoriga aylanib, asta-sekin mintaqada va butun dunyoda muhim rol o‘ynayapti.

Biroq, mamlakatning jug‘rofiy joylashuvi, ma‘lum manbalarning yetarli darajada ta‘minlanmaganligi, rivojlanishning umumiy asosi va umuman tashqi dunyo uchun ochiqlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlarning uzoq va qiyin yo‘lini bosib o‘tgan holda, Xitoyning rivojlanishi hali ham notekis va muvozanatsizdir. Vaziyat shundan kelib chiqdiki, Xitoyning sharqiy mintaqalari, ayniqsa qirg‘oq zonasi tez rivojlandi va mamlakat g‘arbida, ichki mintaqalarda rivojlanish sezilarli darajada kechikdi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi besh yilda Xitoyning sharqiy mintaqalari yalpi ichki mahsuloti Xitoyning g‘arbiy mintaqalariga qaraganda 2,5 baravar yuqori. 2018- yilda Sharqiy Xitoyda yalpi ichki mahsulot 42,3 trln. yuanga, G‘arbda esa - 16,1 trln.

yuanga teng. Mamlakatning sharqiy va g‘arbiy qismlarining iqtisodiy rivojlanish darajasidagi katta farq Xitoyning har tomonlama modernizatsiya qilinishidagi to‘siqlardan biridir.

Xitoy iqtisodiyoti 30 yildan ortiq tezkor rivojlanishni boshdan kechirdi va yangi davrga kirdi: iqtisodiy o‘sish sur’ati pasaymoqda, ishlab chiqarish tarkibi qayta ko‘rib chiqilishi kerak, rivojlanish modeli o‘zgarishga muhtoj. Hozirgi vaqtda Xitoy iqtisodiyoti jadal rivojlanish sur’atlaridan barqaror sur’atlarga o‘tmoqda. Statistikaga ko‘ra, 2018-yildan beri Xitoyning yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’ati sekinlasha boshladi va 2019-yil oxiriga kelib, YAIM o‘sish sur’ati 6,1 foizni tashkil etdi [3]. Bundan tashqari, po‘lat ishlab chiqarish va mashinasozlik kabi sohalarda ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari muammosi paydo bo‘ldi. Mamlakat ortiqcha ishlab chiqarishni o‘tkazish va iqtisodiy tiklanishni rag‘batlantirish uchun samarali usullarni izlashi va tashqi bozorlarni kengaytirishi kerak. Turli mintaqalarning tarkibi va rivojlanish darajasidagi tafovutlar tufayli kelib chiqadigan to‘siqlarni yengib o‘tish uchun Xitoy iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishning keng yo‘lidan voz kechib, uning o‘rniga iqtisodiy tuzilmani tartibga solishni tezlashtirishi, an’anaviy sanoatni o‘zgartirishga o‘tishi va shu bilan kelgusida barqaror iqtisodiy rivojlanishni kafolatlashi kerak edi. Shu munosabat bilan, Xitoy rahbariyati “Bir makon - bir yo‘l” yangi tashabbusini ilgari surdi, bu g‘arbiy Xitoyning rivojlanishini jadallashtirish va Xitoyning shimoli-sharqiy mintaqalarini jonlantirishga qaratilgan iqtisodiy loyiha sifatida baholanmoqda [4]. “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusining amalga oshirilishi mintaqaning rivojlanish darajasini oshirishga, xususan, mahalliy aholining turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy maqsaddan tashqari, havfsizlik masalalariga ko‘proq e’tibor beriladi. Uni amalga oshirish separatistik kayfiyatni kamaytirishi mumkin (Shinjon-Uyg‘ur muxtor viloyati va Tibetda), g‘arbiy mintaqalarda va umuman butun mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash.

Xalqaro va mintaqaviy vaziyatning o‘zgarishi bir vaqtning o‘zida “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusini ilgari surishga ta‘sir etuvchi tashqi omildir. XXI asrga kirib, jahon savdosida, investitsiyalar tarkibi va moliyaviy oqimlarda chuqur o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jahon iqtisodiyoti asta-sekin tiklanmoqda. “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi Xitoyning so‘nggi yillarda duch kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarga javobi edi. Jahon iqtisodiy inqirozi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishi eksport va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga asoslangan Xitoy iqtisodiy modelining samaradorligini pasayishiga olib keldi.

Ta‘kidlash kerakki, 2008-yildagi xalqaro moliyaviy inqiroz Xitoy iqtisodiyotiga misli ko‘rilmagan ta‘sir ko‘rsatdi. Rivojlangan davlatlar, ayniqsa Yevropa bozorlarining qisqarishi Xitoyning iqtisodiy modeli va tashqi muhitning o‘zgarishiga olib keldi. Yangi xalqaro vaziyatga muvofiq, Xitoy avvalgi passiv vaziyatdan xolos bo‘lishi, iqtisodiy rivojlanish uchun yangi va kengroq eksport bozorlarini topishi kerak. Xitoyning g‘arbiy qismida ochiqlikni kengaytirish orqali Markaziy Osiyo, Janubiy va G‘arbiy Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalari mustahkamlanadi, iqtisodiyot, fan va texnika va boshqa sohalardagi hamkorlik rivojlanadi. Shunday qilib, oxir-oqibat, Xitoyning tashqi tashqi ochiq tuzilishi shakllantiriladi. Ushbu jarayonda muhim yo‘nalishlardan biri bu «Bir makon - bir yo‘l» tashabbusidir. Bu tashabbus mintaqaviy va davlat ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga, davlatlar va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi savdo va investitsiyalar uchun to‘siqlar va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi [7].

Xalqaro vaziyat nuqtai nazaridan, Xitoyning yangi Ipak yo‘li dunyoning ikki muhim mintaqasi o‘rtasida joylashgan Osiyo, Yevropa va Afrika qit‘alarini o‘zaro bog‘lab turadi. Bir tomondan - Osiyo-Tinch okeani mintaqasining tez rivojlanayotgan iqtisodiyoti, ikkinchi tomondan - Yevropaning rivojlangan iqtisodiyotlari. Ularning o‘rtasida Markaziy va G‘arbiy Osiyo mamlakatlari Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan hamda mineral, energiya, yer va inson resurslariga boy. Ushbu mintaqa mamlakatlari xalqlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va farovon hayoti uchun jiddiy intilishmoqda. Osiyoda mintaqaviy hamkorlik tobora rivojlanib bormoqda va Osiyoning tinch rivojlanishiga samarali hissa qo‘shmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, Yevropa va Shimoliy Amerikada ham, Osiyoda ham mintaqaviy hamkorlik o‘rtasida hali ham jiddiy tafovut mavjud, ayniqsa Osiyo mamlakatlarining rivojlanishidagi nomutanosiblik, yaqin aloqalarning yo‘qligi - bularning barchasi mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish uchun katta to‘siqlardir - deya ta’kidlanadi [8]. Integratsiya Xitoyning «Bir makon - bir yo‘l» tashabbusida quruqlikdagi va dengizdagi Buyuk Ipak yo‘li loyihalari barcha ishtirokchilarga foyda keltiradigan umumiy sabab sifatida tasvirlangan. Bunday loyiha Markaziy, Janubiy, Janubi-Sharqiy va G‘arbiy Osiyoning turli davlatlarini qamrab oladi, bu mintaqalararo almashinuv, o‘zaro bir-birini to‘ldirish, Yevrosiyo ishlab chiqarish zanjiri va narxlar zanjirini yaratishga yordam beradi, bu Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi

mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini beradi. “Bir makon - bir yo‘l” tashabbusi Ipak yo‘li bo‘ylab mamlakatlar o‘rtasidagi hukumatlararo hamkorlikni rag‘batlantirishi ehtimoldan holi emas. Boshqacha qilib aytganda, Xitoyning mazkur tashabbusi Osiyo, Yevropa va Afrika mamlakatlari o‘rtasida transport infratuzilmasini, energetika va savdo-iqtisodiy yo‘lakni yaratishga qaratilgan bo‘lib, so‘nggi rejada “Bir makon - bir yo‘l” bo‘ylab ishtirok etuvchi davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Umuman olganda, integratsiya g‘oyasi va erkin savdoni ta’minlash Pekinning Yevroosiyo mintaqasidagi tashqi iqtisodiy strategiyasining asosidir [9].

Bundan tashqari, Xitoyning «Bir makon - bir yo‘l» tashabbusi ikki tomonlama munosabatlarni bosqichma-bosqich mustahkamlash uchun yaxshi siyosiy asosga ega. Buyuk Ipak yo‘li bo‘yidagi davlatlar siyosiy rejimlar va madaniyatlarda bir-birlaridan farq qilishiga qaramay, deyarli barchasi tinch va do‘stona tashqi siyosat yuritmoqdalar. Bugungi kunda Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar, Xitoy va Sharqiy evropa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, Xitoy hamda O‘zbekiston munosabatlari tarixidagi eng yaxshi davrga aylandi. Masalan, 2013-yil 9-sentabrda “O‘zbekiston bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli shartnoma” tuzilishi keyingi faoliyat kayfiyatini o‘sishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunga kelib O‘zbekiston Xitoy xalq respublikasi bilan o‘zaro hamkorlikni misli ko‘rilmagan darajada har tomonlama sheriklik va strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi deb aytish mumkin. So‘nggi yillarda Xitoy mintaqadagi eng yirik savdo va sarmoyaviy sherik sifatida O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Aytish kerakki, do‘stona siyosiy munosabatlar barqaror va qulay muhitni yaratib, «Bir makon - bir yo‘l» tashabbusi doirasida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun asos yaratdi. Geosiyosiy manfaatlar nuqtai nazaridan ushbu tashabbusning amalga oshirilishi Xitoy va Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi siyosiy hamkorlikni rivojlantirishga va ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi [10]. O‘zbekistonda Xitoyning rivojlanish bo‘yicha ba’zi tajribalari tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilayotgani sir emas. Bugun O‘zbekistonda Xitoylik investorlar ishtirokida katta loyihalar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin. Zero, dunyoga eshiklarni ochmasdan mamlakatda Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni o‘z o‘rnida va vaqtida amalga oshirish qiyin ekanligi barchaga ma’lum [10].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston mustaqilligini 29 yili mobaynida amalga oshirilgan ulkan iqtisodiy islohotlar rivojlangan davlatlar, xususan, Xitoy xalq respublikasi ishonchini qozonishga xizmat qildi. Yangi O‘zbekiston geosiyosiy muhitda o‘ziga xos pozitsiyani egallab turgani nafaqat mintaqadagi, shu bilan birga xalqaro tashkilotlarni ham e’tirofiga sabab bo‘lmoqda [11]. Eng asosiysi, XXI asrda biror mamlakat tashqi integratsiyadan uzilgan holda yuksak marralarni egallay olmasligi ayon bo‘lib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida rivojlanish pallasini boshidan kechirayotgan O‘zbekistonda geosiyosiy tafakkurni yanada yuksaltirish zaruriyati paydo bo‘layotganiga ishora qilmoqda.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Toshkent, O‘zbekiston. 2017. –B.403

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. \Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, 1-son.

3. Флорова И.Ю. Китайский проект «Экономический пояс Шелкового Пути»: развитие, проблемы, перспективы // Проблемы национальной стратегии. – № 5 (38). – 2016. – С. 47-67.

4. Лихуа Х. Перспектива стыковки стратегии «Один пояс – Один путь» и ЕАЭС // Управленческое консультирование. – № 11. – 2015. – С. 66-70.

5. Сергеев М. Пекин дипломатично подвинул путинский проект Евразийского союза. // Независимая газета. 14.10.2013. //УРЛ: http://www.org.ru/economiss/2013-10-14/1_pekin.html

6. Выступление Си Цзиньпина в МГИМО, 22 марта 2013 г. //УРЛ: хттпс://www.ёутубе.ком/ватч?в=3жw1УС3ТксЙ&феатуре=ёуту.бе

7. Лавров: сопряжение Экономического пояса Шелкового пути с процессами евразийской интеграции. //МИД РФ. // http://www.mid.ru/brp_4.

8. Меморандум о совместном строительстве и развитии парков высоких технологий “Шелковый путь”. 13.10.2014. // URL: http://www.fdi.gov.cn

9. Прекрасные перспективы и практические действия по совместному созданию

экономического пояса шелкового пути и морского шелкового пути XXI века. Госкомитет по делам развития и реформ, Министерство иностранных дел и Министерство коммерции (издано с санкции Госсовета КНР). //Пекин: Издательство литературы на иностранных языках, -Пекин, 2015.

10. Лукин А.В., Лузянин С.Г. и др. Китайский глобальный проект для Евразии: постановка задачи. - М.: Научный эксперт. 2016. - 130 с.

11. Мирзаев Р. С. Великий шелковый путь: реалии XXI века. // М. -2005. - 248 с.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog‘ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar**: UDK, ishning nomi (o‘zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro‘yxati (to‘liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o‘zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma’lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o‘zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so‘zlar (5-7, o‘zbek, rus va ingliz tillarida) bo‘lishi lozim.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo‘ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag‘ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo‘yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo‘lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo‘lib, mumkin qadar qisqa so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; “Ilmiy axborotnoma” jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro‘yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko‘rinishida terilgan bo‘lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo‘lmasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o‘ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o‘lchami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo‘g‘in ko‘chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavsda ro‘yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro‘yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- “Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi”dan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas’ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo‘llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

E- mail: axborotnoma@samdu.uz

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК **SCIENTIFIC REPORTS**

Mas’ul kotib **X. Sh. Tashpulatov**
Texnik muharrir **A. I. Inatov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - f.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.n., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent
A.R.Safarov - PhD., dotsent

Mas’ul muharrirlar:

D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Xaydarov - f.-m.f.n., dotsent

Muassis: Samarqand davlat universiteti
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87
e-mail: axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.
Bosishga 29.08.2020 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o’lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 277. Adadi 30 nusxa.

_____

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.